



OYBEK IJODINING YOSHLAR ORASIDAGI KENG TARG'IBI

Muxlisa Sayfiyeva

Toshkent to'qimachilik va yengilsanoat instituti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15194754>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-Aprel 2025 yil

Ma'qullandi: 07- Aprel 2025 yil

Nashr qilindi: 11-Aprel 2025 yil

KEYWORDS

Sheriyat, adabiyot, shoir, til, doston, akademiya, tarixiy, madaniyat, milly..

ABSTRACT

XX asr o'zbek adabiyotining yirik namoyondasi Muso Toshmuhammad o'g'li Oybekning yoshlar orasida ijodini keng targ'ib qilish uni etiborga loyiq ijodi va ijodsiz yashay olmasligi va u etirofka loyqligini bilib olasiz.

Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek – o'zbek adabiyotining yirik namoyandalardan biri hisoblanadi, adabiyotshunos, yozuvchi, shoir va tarjimon sifatida katta meros qoldirgan bizga. U o'z ijodi orqali o'zbek xalqining tarixi, madaniyati va ijtimoiy hayotini chuqur aks ettirib, milliy adabiyotimizning rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Oybekning asarlarida insoniylik, mehr-oqibat va vatanparvarlik g'oyalari asosiy o'rin egallaydi. Uning "Qutlug' qon" romani, she'riy to'plamlari va ilmiy-tanqidiy maqolalari o'zbek adabiyotida o'chmas iz qoldirgan.

Oybek adabiy faoliyatini shoir sifatida boshlagan. «Cholg'u tovushi» degan birinchi she'ri 1922-yil «Armug'on» jurnalida bosilgan. Bu vaqtda u Cho'lpon, shuningdek, «yosh usmonlilar» she'riyati ta'sirida bo'lib, ular ruhidagi she'rlaridan iborat Oybek adabiyotga 1926-yilda chop etilgan "Tuyg'ular" sheri to'plami bilan kirib kelgan. Uning "Dilbar-davr qizi" 1931-yilda, "O'ch" 1932-yilda, "Baxtigul va Sog'indiq", "Temirchi jo'ra" 1933-yilda chop etilgan va shu kabi dostonlari o'z davrining she'riy yil nomalari hisoblanadi. Shoir bu dostonlarida o'z davrining qahramon obrazini yaratish va shu davrning muhim ijtimoiy ma'naviy masalalarini ko'tarish bilan birga tarixiy o'tmish mavzusiga ham murojat etdi. Shoir tarixiy va zamonaviy mavzularda yigirmaga yaqin dostonlar yaratgan. Oybekning 1940-yilda yozilgan "Qutlug' qon" ramani Birinchi jahon urushi davridagi O'rta Osiyo xalqlar hayotini tasvirlab beradi. Uning esa 1943-yilda yozilgan "Navoiy" nomli ramani buyuk o'zbek shoiri, mutafakkiri va g'azal mulking sultoni hisoblangan Alisher Navoiy hayoti va ijodiga bag'ishlangan bo'lib, bugungi kunga kelib ko'plab tillarga tarjima qilingan. Oybekning «Chimyon daftari» turkumiga kirgan, o'zbek tabiatining husunkor tarovati va betakror ranglarini o'ziga simirgan she'rlari nafaqat shoir she'riy ijodining balki umuman o'zbek lirikasining shoh namunalardan biri bo'ldi. Shoir bu she'rlari bilan o'zbek she'riyatiga oybekona nafislikni olib kirdi, nozik tuyg'u va kechinmalarni tasvirlash madaniyatini yanada mukammallashtirdi, lirik she'riyat tilini nafosat yog'dulari bilan jilolantirib yubordi. Biz uchun mashxur sherlar, mashxur ramanlar qoldirgan Oybek uchun ijod yashash tarzi bo'lgan. Odatda insonni hasta xolida unga hech narsa yoqmaydi va hech narsaga qo'li bormaydi faqat

joni bilan ovvora bo'lib xasta xolida birinchi o'rindagi maqsadi tuzalish bo'lsa boshqa insonlarda farqli o'laroq Oybek hatto xasta holatida ham o'zini ijodiy mehnatsiz sher yoki doston yozmay kun o'tqazishini tasavvur qila olmagan. Shuning uchub ham adib sog'ayishi va siog'ayib bo'lgach bearmon yozadigan vaqtjarini orziqib kutgan va xasta holida quyidagi sherni yozgan:

Xastamen fikrga tuyg'uga to'lib
Oy menga hamqadam sokin yuramen
Sog'aysam bir kuni yozarman to'yib
Hisalarga qalbimni qo'shib yozaman.

Kechalar yururmen telbaday horib
Boshimda oy borur, menga hamqadam
Xayollar ushadi mashalday yonib,
To'yib yozajakman bir kun sog'aysam.

Bundan bilishimiz va tafakkur qilishimiz mumkunki Oybek uchun shariyat, adabiyotsiz hayot bo'lmagan u o'zini ijodsiz umuman tasavvur qila olmagan shuning uchun ham u doim ijod qilgan. Oybekning bunday asarlari, sherlari, jonkuyarkigi, ijodni sevishi, shariyatni sevishi xasta xolida xam ijoddan to'xtamasligi bu shunchaki ko'z yogurtirib yokida ko'r ko'rona o'tib ketadigan narsa emas. Shu sababli Oybekning ijodini keng targ'ib qilish u haqida ijodi, dostonlari, sherlari jonkuyarligini bizga sara dostonlar sherlar qoldirganini yosh avlodga yetqizish maqsadida 2025-yil 29-mart kuni Sharof Rashidov tumani Ko'rpasoy mahalla fuqarolar yig'inida joylashkan 41-sonli o'rta talim maktabida yoshlar orasida Oybek ijodini keng targ'ib qilish haqida prezintatsiya o'tib keldim va bu ishim davida Oybekning hayot yo'li va uning ijodi bilan tanishtirib uni ijodi va jonkuyarligi dostonlari va sherlari haqida yoshlar bilan davra suhbatini o'tqazdik. Bu ishimiz orqali yoshlar Muso Toshmuhammad Oybekning asarlarini va sherlarini bilishini aniqladik bilmagan malumotlari haqida esa biz ularga to'liq va qiziqarli bilimlar berdik. Oybekning bunday fidoyiligini biz shunchaki o'tqazib yubora olmaymiz hozirgi yosh avlodga bunday jonkuyarligini va ijodini yetqazmay qolmaymiz. Biz bunday jonkuyarlikka shunchaki qarab o'tib ketishimiz emas bunday fidoyilikni ulug'lashimiz kerak.

Xulosa

Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek o'zbek adabiyotining ulug' siymolaridan biri hisoblanib, o'zining ijodiy merosi bilan milliy madaniyatimiz taraqqiyotiga beqiyos va juda kata hissa qo'shgan. Uning asarlari nafaqat badiiy yuksakligi, balki tarixiy haqiqatni yoritish, insoniy fazilatlarini targ'ib etish va milliy o'zlikni anglatish bilan ham ahamiyatlidir. Oybek ijodi bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan bo'lib, uning romanlari, she'rlari va ilmiy maqolalari yangi avlod kitobxonlari uchun bebaho manba bo'lib qolmoqda. Shunday ekan, biz uning ijodiy merosini o'rganish va asarlarini targ'ib qilish orqali milliy adabiyotimizni yanada boyitishimiz kerak.

Foydalanilga adabiyotlar:

1. Oybek. Tanlangan asarlar. 6 jildlik. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1970–1975.
2. G'aniyeva M. Oybek hayoti va ijodi. — Toshkent: O'zbekiston, 1978. Ortiqov, O. O'zbek romani taraqqiyoti (Oybek romanlari misolida). — Toshkent: Fan, 1986.

3. Karimov, I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. — Toshkent: Ma'naviyat, 2008. G'afurov, A. Oybek lirikasining badiiy xususiyatlari. — Toshkent: Fan, 1984.
4. O'zbek adabiyoti tarixi. 4 jildlik. 3-jild. — Toshkent: Fan, 1978. Rasulov, S. O'zbek poeziyasi taraqqiyotida Oybekning o'rni. — "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, 1996.
5. To'xtaboyev, G. Buyuk siymolar: Oybek. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.

